KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYA ASOSLARI VA UNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Mamirova Sh.X.,GDPI magistranti
e-mail: shaxnozamamirova49@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisda o‘qituvchi pedagogik kompetensiyasining mazmun va mohiyati, uning asosiy komponentlari va tarkibiy qismlari, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy va texnologik asoslari, samarali ta’sir etuvchi omillari, vosita va metodlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: kompetensiya, kompetentlilik, kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi, ta’limning interfaol metodlari, differentsial va individual yondashuv.

Аннотация: в тезисах обсуждаются содержание и сушность педагогической компетентности учителя, ее составные части и основные компоненты, теоритеческие и технологические основы, а также эффективные факторы, средства и методы воздействуюшие на фармирования у будущих учителей профессиональной компетенности.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, коммуникативная компетентность, информационная компетентность, саморазвивающая компетенция, интерактивные методы образования, дифференциальный и индивидуальный подход.

Annotation: this paper discusses the content and essence of the pedagogical competence of a teacher, its constituent parts and main components, theoretical and technological foundations, as well as effective factors, means and methods influencing the development of professional competence in future teachers.

Key words: competence, competence, communicative competence, information competence, self-development competence, interactive methods of education, differential and individual approach.

Jahonda ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar, ta’lim tizimida faoliyat yurita oladigan bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilarni tarbiyalash va ta’lim berishlari uchun yangi avlod darsliklari va qo‘llanmalarini yaratish davr talabadir.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risidagi farmonlari ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra sifatli, yetuk mutaxassislarni tayyorlash bilan birga ularni xolisona, erkin fikr yuritadigan hamda ona vatanga dildan xizmat qila oladigan barkamol inson bo‘lishlari uchun ularning

ijodiy tafakkurini rivojlantirib, davlat oldida javobgarlikni his qiladigan, har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish murabbiylarimizning asosiy burchidir. [1]

Kompetensiya – muayyan fan bo‘yicha o‘quvchi egallagan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir. Inson qaysi kasb sohibi bo‘lishidan qat‘iy nazar o‘z ishiga, mashg‘ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o‘z-o‘zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O‘qituvchi ham bolalarni sevsa, tarbiyalasa, o‘zi ham ulg‘ayadi, donishmandlik kasb etib boradi.

O‘qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qo‘lida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarni shakllantirilishi, dars davomida o‘quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlavchi “to‘ti”ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o‘zaro hamkorlikda ishlovchi, o‘zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Interfaol metodlarni qo‘llab dars o‘tish o‘quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o‘quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o‘rgatish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ro‘yobga chiqarish, o‘qituvhi–o‘quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta‘minlaydi. Interfaol usullarda o‘qituvchi o‘quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun muhit yaratmog‘i, fan asoslarini egallashga yo‘naltirmog‘i, qiziqish, mehr uyg‘otish bilan shug‘ullanadi. [2]

Yangi pedagogik texnoligiya dars o‘tish usullari va shakllarini o‘zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o‘quvchini o‘quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O‘qitishning innovasion, nostandart (interfaol) shakllari kompyuterli o‘yinlar, intrenetdan foydalanish, elektron darsliklar bilan turli usullarda yangi mavzuga ko‘proq e‘tibor qaratish, o‘qitishni suhbat, o‘yin, musobaqa, sahna ko‘rinishli, musiqali, savol-javob, aqliy hujm, mushoira sayyohat, intervyu, tijorat, bahs-munozara kabi usullarda dars o‘tishni talab qiladi. Darsning borish jarayonida ta‘limiy metodlar va usullar almashina boradi. Noan‘anaviy darsda o‘quvchi shaxsi birinchi o‘rinda turadi. O‘qituvchi o‘quvchi bilan yakkama-yakka, interfaol usulida harakat qiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘limdir.

Tadqiqotchi olimlar o‘qituvchining tayansh kompetensiyalariga quyidagi komponentlarni kiritishadi.

1. Kommunikativ kompetensiya:

– jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

– o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

– ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish,jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

– muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

– turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur(konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.

2. Axborot bilan ishlash:

– mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv) telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

– media vositalaridan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda mediamadaniyatiga rioya qilish;

– ma‘lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

– kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

3. Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:

– shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma‘naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

– hayot davomida o‘qib o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

– o‘z xatti-harakatini advokat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;

– o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

O‘qituvchining kasbiy kompentensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy. 2. Shaxsiy.3. Umuminsoniy.4. Ma‘daniy.5. Maxsus [3]

Shaxsiy kompetentlik nima? izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. Kompetentsiya – bu har qanday fan sohasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribalar yig‘indisidir. Pedagogikada o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarbiya, o‘qitish va ta‘lim faoliyati jarayonida talabalar bilan birgalikda ularning ta‘lim samaradorligini oshirish uchun muammolarni mohirona hal qilish qobiliyatidan iborat.

Kompetentsiya berilgan vazifani bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini ta‘minlovchi, olingan ko‘nikma, bilim va tajribaga asoslanadi. Masalan, tarjimonning kundalik ishida foydalanadigan tilni bilish darajasi. Kompetentlik o‘qitish yoki orttirilgan tajriba natijasida ilgari shakllangan kompetentsiyaga asoslanadi va ma‘lum bir shaxsning xususiyatlarini, shuningdek, uning yuqorida tavsiflangan vazifalarni yoki faoliyatni bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Ma’lumki, umumiy o’rta ta’lim maktablari zimmasiga ta’lim-tarbiya

jarayoni orqali o’quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o’z-o’zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. [4]

Zamonaviy yondashuvlar o’qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o’zaro integratsiyalash orqali o’quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Dunyoning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta’lim, umumta’lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo’g’inlaridagi o’zgarishlarga ta’siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta’lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo’naltirilgan, ijtimoiy va ma’lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Shaxsning kompetentligi qanday aniqlanadi? A.V.Xutorskiyning ishlarida kompetensiya va kompetentlik ta’riflari, xususan «...ma’lum bir sohada faoliyat ko’rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko’nikmalarga ega bo’lgan shaxs kompetentli shaxs», degan fikri mos tushadi. V.V.Serikovning ishlarida kompetentlikka «o’qimishli, bilimli, ko’nikmali bo’lish usuli shaxsiy o’zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasidir» deb izoh beriladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.– Toshkent, 2015. – 120 bet.

2. Slastenin V.A. Pedagogika: Professionalnaya kompetentnost pedagoga. - M.: Misl, 1992.-237 s.

3. Колпакова Н.В. Формирование профессиональной компетентности будушего учителя начальних классов средствами развиваюших технологий. Дисс... канд.пед. наук. Бийск, 2006.-217с.